

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Karimov

A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik- stilistik bo’yoq dorlikni saqlash tamoyillari 125

A.A.Shernazarov, X.J.Jamolova

“Boburnoma”dagi forscha baytlarning mualliflari 129

M.B.Rajabova

Alisher Navoiy ijodida marsiya va lavhalar 133

G.S.Qurbanova

Nurali Qobul ijodida ayol ruhiyati tasviri 140

M.K.Mirzoyev

Farzona Xo’jandiylarida motam marosimining badiiy ifodasi 145

M.A.Jo’rayeva

Cho’ponning “Vayronalar orasida” asari janr xususiyatlari 149

L.A.Masharipova

O’zbeginning go’zal urf-odatlari 154

TILSHUNOSLIK**M.Y.Mamajonov, Z.A.Mirzamatova**

Diplomatik munosabatlar ramz va turlarining tasniflari 158

Z.Sh.Pazilova

O’zbek va nemis tillarida to’y bilan bog’liq leksik birliklar 163

M.Y.Xusaynova

O’zbek va ingliz tillarida paxta leksemasining lingvomadaniyatda aks etishi 168

M.M.Mamajanova

Ingliz tili grammatikasining retseptiv ko’nikmalarini o’rgatish 172

N.A.Xoshimova, M.R.Nematjonova

Tarjimada realiyalar masalasi 176

X.M.Maripova

Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya bilan bog’liqligi 179

N.A.Mansurova

Tilshunoslikda terminologiya masalalari 183

M.R.Komilova

O’zbek tilshunoslida o’zlashma leksemalarning o’rganilishi tarixi 187

J.X.Djamolov

O’zbek tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni 192

Sh.T.Yusupova

Lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati xususida 197

M.O.Batirxanova

Somatik frazeologik birliklar tadqiqida “Madaniy kodlar” 201

G.X.Saydullayeva, O.P.Uralova

“TikTok” ijtimoiy tarmoq izohlarida xorijiy so’zlarning izohlarda ishlatalishi 203

M.M.Nurmatova, M.O.Orripova

Nutqiy etiketni shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy omillarning o’rni 206

MATEMATIKA**A.K.Yusupova, B.Qurbanov**

Ba’zi biologik jarayonlarni differensial tenglamalar yordamida o’rganish 209

O’.U.Ismailov

Atoqli otlar nazariyasi va semantikasi 214

FIZIKA- TEXNIKA**E.X.Bozorov, M.A.Abdullayeva**

Oliy ta’lim muassasalarida “radiatsiya xavfsizligi” fanini o’qitishda interfaol metoddan foydalanish 218

NUTQIY ETIKETNI SHAKLLANTIRISHDA MADANIYAT VA IJTIMOIY OMILLARNING O'RNI

РОЛЬ КУЛЬТУРЫ И СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА

THE ROLE OF CULTURE AND SOCIAL FACTORS IN THE FORMATION OF SPEECH ETIQUETTE

Nurmatova Munisxon Mashrabovna¹, Oripova Moxidil Odilovna²

¹Nurmatova Munisxon Mashrabovna

- Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili kafedrasи katta o'qituvchisi

²Oripova Moxidil Odilovna

- Farg'ona davlat universiteti, lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutqiy etiket va uni shakllantirishda milliy madaniyatning o'rni, turli rasm-rusum va an'analar tufayli nutqiy xulqning ijtimoiy belgilangan shakllari yuzaga kelishi, og'zaki nutqida yoshlar nutqining o'ziga xos jihatlari, nutqiy odatda suhbatdoshlar o'tasida aloqa o'rnatishning o'ziga xos usullari, nutqiy etiketni shakllantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar haqida so'z yuritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается речевой этикет и роль национальной культуры в его формировании, возникновение социально обусловленных форм речевого поведения, обусловленных различными традициями, специфика молодежной речи в устной речи, специфические способы установления связи между речевыми общими собеседниками, социальные факторы, влияющие на формирование речевого этикета

Abstract

This article examines speech etiquette and the role of national culture in its formation, the emergence of socially conditioned forms of speech behavior due to various images and traditions, the specifics of youth speech in oral speech, specific ways of establishing communication between speech common interlocutors, social factors influencing the formation of speech etiquette.

Kalit so'zlar:madaniyat, nutqiy etiket, muloqot, ijtimoiy omillar, gender, verbal va noverbal muloqotvositalar.

Ключевые слова: культура, речевой этикет, общение, социальные факторы, гендер, вербальные и невербальные средства общения.

Key words: culture, speech etiquette, communication, social factors, gender, verbal and non-verbal means of communication

KIRISH

Tadqiqotchilar ta'kidlashlaricha, til ma'lumotni saqlash, yetkazish va shu bilan birga, inson xatti-harakatlarini boshqaruvchi maxsus ijtimoiy vosita hisoblanadi (Leech 1983). Olimlar, faylasuflar, lingvistlar, psixologlar tilni g'oya yaratish, fikr yuritish va ifodalashga xizmat qiladigan ijtimoiy tarixiy hodisa sifatida o'rganadilar.

Hammaga ma'lumki, rivojlanish va yangilanish jarayonidagi o'zgarishlar, eng avvalo, kommunikatsiyada sodir bo'ladi. Keyingi paytlarda nutqiy etiket masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Mustaqillik davrida turli xalqlar madaniyatini chuqr o'rganish, shu orqali, milliy madaniyatimiz va uning o'ziga xos xususiyatlarini dunyoga tanishtirish tilshunoslarimizning asosiy maqsadlaridan biri bo'limoqda.

O'zbek tilshunosligida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar, boshqa koplab xalqlar tilshunosligi tarixida bo'lgani kabi, dastlab madaniyatshunoslik, odob-axloq me'yorlari tarkibi sifatida o'rganilgan. Bu davr adabiyotlarda o'rganilgan nutqiy etiket, muloqot shakllari til birligi sifatida emas, balki tarbiya ifodasi, inson shaxsiyatining namoyon etuvchi tushunchalar sifatida tahlil etilgan.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Nutqiy etiket (nutq madaniyati, odobi) ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bogliq holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi.

TILSHUNOSLIK

XX asrning 20-yillardan so'ng o'zbek tilining nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me'yorlariga asoslanadi. Bu me'yorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Hoshim, T. N. Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon va boshqalar), adib-u shoirlar (Qodiriy, Cho'pon, Avloniy, Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar) munosib hissa qo'shdilar.

Mazkur tadqiqotda turli usullardan foydalilanigan bo'lib, ular jumlasiga nazariy (muammo bo'yicha maxsus adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, so'rov natijalariga ko'ra tasniflash, umumlashtirish); empirik (kuzatish, so'roq qilish) usullarni kiritish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyati va madaniyatlararo farqlanishlar nafaqat tilda, balki tashqi korinish, yuz ifodasi, imo-ishoralarda xabar almashinish muloqot jarayonini boshlab yuboradi.

Millatning birinchi belgisi – til. Madaniyatning birinchi belgisi – odob. Odobning birinchi belgisi salomlashish. Salomlashish har bir til, hatto har bir lahzada o'zgacha yangraydi.

Bugungi kunda madaniyati, urf-odati jihatidan bir biridan uzoq bo'lgan xalqlarni o'zaro qiyoslash, tadqiq etish dolzarb muammolardan biridir. Turli rasm-rusum va an'analar tufayli nutqiy xulqning ijtimoiy belgilangan shakllari yuzaga kelib, ularning yig'indisi asosida ma'lum vaziyat qoliplarining mavzu guruhlari hosil bo'ladi. O'zbek xalqida salomlashish vaziyatidagi «Assalomu alaykum» – «Vaalaykum assalom», «Xush kelibsiz» – «Xushvaqt bo'ling», «Hormang» – «Omon bo'ling», «Yaxshi qoling» – «Yaxshi boring»; qutlash vaziyatida «Muborak bo'lsin» – «Qulluq» kabi maxsus turg'un birliklar, ingлиз xalqida salomlashish vaziyatidagi *Good morning/afternoon/evening (Xayrli tong/kun/kech)*, *Welcome – Thank you (Xush kelibsiz – Rahmat)*, *Enjoy your work – Thank you (Hormang – rahmat)*, *Good bye – Have a good journey (Yaxshi qoling – Oq yo'l)*; кутлаш вазиятида *Congratulation – Thank you* kabi ifoda etiladi.

Nutqiy etiketning o'ziga xos ahamiyati shundaki, ular ijtimoiy omillar asosida yuzaga chiqadi. Nutqni shakllantirishda turli ijtimoiy omillar yetakchilik qiladi. Har bir ijtimoiy guruh, holat, vaqt va vaziyatlarga ko'ra tilning turli usulublari va unga mos ravishda rasmiy va norasmiy muloqot vositalaridan foydalalaniladi. Yosh belgisi insonlar nutqida katta ahamiyatga ega. Yosh nisbatiga ko'ra keksalar nutqi, yoshlar nutqi va bolalar nutqi farqlanadi. Nutqiy etiket vaziyatlarida keksalar nutqida hayotiy xulosalar, ijtimoiy hodisalarga bo'lgan bosiq va duo-nasihatlarga asoslangan munosabatlari yaqqol ko'rindi.

Og'zaki nutqda yoshlar nutqining o'ziga xos jihatlari ularning kelib chiqishi, jinsi, jamiyatdagi o'rnila ko'rindi va farqlanadi. Ular salomlashishda, murojaat shakllarida, aforizmlarda, maxsus ma'nno anglatuvchi so'z o'yinlarida, boshqa tildan kirib kelgan so'zlarda namoyon bo'ladi. Yoshlar nutqida, ayniqsa, shaharlik yoshlar orasida chet tillardan o'tgan so'zlar ko'p uchraydi. Ba'zi vaziyatlarda milliy andozadagi birliklarni ham o'zgacha ishlatadilar.

Til vositalarini gender jihatidan tahlil qilish keyingi yillarda fanda katta qiziqish bilan o'rganilayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada Yevropa tilshunosligida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda, asosan, erkak va ayollar nutqida uchraydigan murojaatlarning farqli holatlari ko'rsatib o'tilgan. Har bir millat o'zining mental tabiatidan kelib chiqqan holda muloqot jarayonida til vositalarini turlicha qo'llaydi. O'zbeklar muloqotida qo'llaniladigan til vositalari umumiyl ma'noda boshqa xalqlarnikiga o'xshasa-da, unda milliy madaniyat aks etib turadi. Shu bilan birga, ayollar va erkaklar nutqida ham bu vositalarning qo'llanilishida farqlar ko'zga tashlanadi.

Murojaat nutqiy etiketning asosiy birligi sifatida ham xizmat qiladi. Murojaat shakllari barcha tillarda muloqotni zarur tarzda olib borishda katta ahamiyatga ega. Murojaat orqali tinglovchining qaysi ijtimoiy guruhga xosligi, yoshi, jinsi, bajarayotgan vazifasi, qolaversa, xarakter xususiyatlari, ayni damdag'i kayfiyati kabi qator jihatlar yoritilishi mumkin.

Nutqiy odatda suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatishning o'ziga xos usullari muloqotda sharoitga mos munosabatlarning turli ko'rinishlarini belgilash mumkin bo'lgan «sen» va «siz» murojaat shakllarini ishlatish bilan chambarchas bog'liqdir. Er-xotin muomalasini misol qilib olsak, «sen» va «siz» shakllarining qo'llanishi nutq akti a'zolarining jinsiga bog'liq. G'arb xalqlarida er-xotinning bir-biriga senlab gapirishi me'yoriy holat sanaladi. Ko'pchilik o'zbek erkaklari o'z rafiqasiga senlab gapiradilar, biroq sharqona fazilatga ko'ra o'zbek ayollari o'z turmush o'rtoq'ini senlamaydilar, bu bilan ularga o'z hurmatlarini ifoda etadilar.

Ma'lumki, muloqot faqatgina verbal vositalar bilan amalga oshirilmaydi, balki noverbal vositalar, ya'ni tana harakati, mimika va jestlar bilan ham amalga oshiradi. Noverbal vositalar verbal muloqotdag'i yashirin maqsad, ehtiyoj, nuqtayi nazar yoki his-tuyg'ularni aniq bayon etishga, og'zaki nutq ustuvorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Noverbal signallar quyidagi hollarda sodir bo'ladi: ruhiy holatlarda, fikrlar so'zlar bilan aytimasdan anglashiladigan axborotlar, masalan, yig'lash, kulish, ko'ngil aynish, uyquning yuzaga kelishi va

hayajondagi yuz holatlari; boy ifoda ma'nosiga ega bo'lgan signallar: qo'rquv, vahima holatlari; bir necha his-tuyg'u ifodalar ongli ravishda sodir bo'ladi, chunki ular umumiy tushunarli ma'nolarga ega.

Imo-ishoralar yordamida so'zlovchi haqida milliy-hududiy va ijtimoiy ma'lumotga ega bo'lamiz. Shu bilan birga, ko'pchilik xalqlar paralingvistik vositalarni tinglovchiga qarab ishlatalishini alohida e'tiborga olishimiz kerak. Aloqa-aratashuv jarayoni kommunikatsiya ishtirokchilarining jamiyatdagi o'rniga bog'liq bo'lganidek, noverbal vositalar ham shaxsning ijtimoiy mansubligiga taalluqlidir. Bunda muloqotchilarning yoshi, jinsi, kasbi, lavozimi, suhbatdoshlarning o'zaro tanish-notanishligi, yashash joyi, muloqotchilarning xarakteri hamda muayyan nutqiy sharoit alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Noverbal vositalar orqali yuzaga chiqadigan qiziqarli farqlardan yana biri genderologik farqlanishlardir. Chunki erkak va ayolning o'ziga xos mimikalari va jestlari borki, bu ularning dunyoqarashi, nuqtayi nazari va shaxs xususiyatlarining ma'lum darajadagi ifodasi hamdir. Ayol kommunikantlar uchun xos bo'lgan noverbal vositalar sifatida qosh uchirib, chimirib gapirish, noz qilishni ifodalovchi ko'z suzish, sababsiz og'izni to'sib gapirish, hayronlikni ifodalovchi mimikalarga boylik, o'zini bexabarday tutish ifodalar, mensimaslik yoki qat'iyatsizlik ma'nosida lab burish, achinish ma'nosida tilni tishlab, boshni qimirlatish, o'z jinsiga mansub kishilar bilan o'pishib ko'rishish, ko'rsatkich barmoqni iyakka qo'yib o'y surish, boshni xiyol pastga egib, suhbatdoshdan arazlash, kommunikant bilan o'ta yaqin turib so'zlashish kabilar.

Milliy xarakterdagи noverbal vositalar ma'lum xalq, millatlar aloqa-aratashuvida ishlataluvchi ishoralar sanalib, odatda, ishlatilish ko'لامи chegaralangan bo'ladi. Bunday noverbal vositalar milliy xususiyatlarni o'zida gavdalantiradi, urf-odatlar, ritual va odob-axloq talablari bilan aloqador bo'ladi. Jumladan, o'zbek ayollari o'zlariga qarindosh bo'lgan erkaklar bilan so'rashganda, ba'zan ikki kaft bilan ularning yelkasini silab yuzga qo'l tortib (yuzga surtib) ko'rishishlari erkak kishiga hurmat, hayo-ibo va erkak zotini ulug'lashlari natijasidir. Inglizlarda esa qo'l berib salomlashiladi; erkak va ayol tengligi mutloq darajada bo'ladi.

Noverbal vositalarning muloqot jarayonida qo'llanilishida ishtirokchilarning ijtimoiy mavqe omillari alohida hisobga olinadi. Noverbal vositalarni yosh hamda jins jihatdan farqlab qo'llashda ularning nutqiy etiket meyorlariga mos bo'lishining ta'minlanishi ijtimoiy-axloqiy tushunmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

XULOSA

Go'zal xulq va odob bilan muloqotga kirishish, suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish uchun eng avvalo foydalilanilayotgan til madaniyati tugrisida yetaricha bilimga ega bo'lish, o'sha tildagi verbal va noverbal muloqot vositalaridan ijtimoiy omillarni e'tiborga olgan holda mos ravishda ishlatalish talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Brown, P. Politeness: Some Universals in Language Use / Brown Penelope, Levinson Stephen // The Discourse Reader, eds. A. Jaworski, N. Coupland. – London; New York: Taylor & Francis Group. Second edition; Routledge, 2006. – Chapter 22. – P. 311–323.
2. Brown, P. Politeness: Some Universals in Language Use / Brown Penelope, Levinson Stephen. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. –345 p.
3. Christie, Ch. Editorial // Journal of Politeness Research. – 2005. – Vol. 1 (1). – P. 1–7.
4. Culpeper, J. It's not what you said, it's how you said it!: Prosody and impoliteness / J. Culpeper // Linguistic Politeness Research Group (eds.). Discursive approaches to politeness. – Berlin; New York: De Gruyter: Mouton, 2011. – P. 57–83.
5. Eelen, G. A Critique of Politeness Theories / G. Eelen. – London; New York: Routledge, 2014. – 280 p.
6. Eelen, G. Politeness and ideology / G. Eelen // Pragmatics. – 1999, Vol. 9. – № 1. – P. 163–164.
7. Ларина, Т. В. Категория вежливости в английской и русской коммуникативных культурах / Т. В. Ларина. – Москва: Изд-во РУДН, 2003
8. Ларина, Т. В. Категория вежливости и стиль коммуникации: сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций /
9. Т. В. Ларина. – Москва: Языки славянской культуры, 2009
10. Mils S. Gender and Politeness. – Cambridge: CUP, 2003. – 270 p
11. Формановская, Н. И. Речевой этикет и вежливость [Электронный ресурс] / Н. И. Формановская // Портал о литературе. Обновляемая база публикаций по вопросам литературы.
12. Watts, R. Politeness. – Cambridge: CUP, 2003. – 304 p.